ISNN:2181-1296

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

ANIQ VA TABIIY FANLAR SERIYASI

Matematika, Mexanika, Informatika
Fizika, Kimyo, Biologiya, Geografiya

№ 1/2 (137)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК **SCIENTIFIC JOURNAL**

2023-yil, 1-son (137/2) **ANIQ VA TABIY FANLAR SERIYASI**

Matematika, Mexanika, Informatika, Fizika, Kimyo, Biologiya, Geografiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

ANIQ FANLAR

SH.A.ALIMOV	- O‘zFA akademigi
S.N.LAKAYEV	- O‘zFA akademigi (SamDU)
M.M.MIRSAIDOV	- O‘zFA akademigi
A.S.SOLEEV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
I.A.IKROMOV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
B.X.XO‘JAYAROV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
A.G.YAGOLA	- f.-m.f .d., professor (Moskva davlat universiteti, Rossiya)
I.I.JUMANOV	- f.-m.f .d., professor (SamDU)
X.X.XUDOYNAZAROV	- t.f.d., professor (SamDU)
ALBERTO DEL BIMBO	- Florensiya universiteti professori, Italiya
L.SABIROV	- f.-m.f .d., professor (SamDU)
A.JUMABOYEV	- f.-m.f .d., professor (SamDU)
N.N.NIZAMOV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
O.Q.QUVONDIQOV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
I.A.RAXMATULLAYEV	- f.-m.f .d., professor
A.SH.YARMUXAMEDOV	- f.-m.f .n. (SamDU)
X.S.XAYDAROV	- f.-m.f .n., dotsent (SamDU)

TABIY FANLAR

M.X.ASHUROV	- O‘zFA akademigi
N.B. FERAPONTOV	- k.f .d., professor (Moskva davlat universiteti, Rossiya)
SH. M. TUGIZOV	- professor, Koliforniya universiteti, AQSh
H. I. AKBAROV	- k.f.d., professor (O'zMU)
E. A. ABDURAXMONOV	- k.f.d., professor (SamDU)
N. K. MUXAMADIYEV	- k.f.d., professor (SamDU)
L. A. BULAVIN	- Kiev milliy universiteti professori, Ukraina
X. Q. XAYDAROV	- b.f.d., professor (SamDU)
Z. I. IZZATULLAYEV	- b.f.d., professor (SamDU)
Sh. T. XOLIQULOV	- g.f.d., professor (SamDU)
S. B. ABBASOV	- g.f.d., professor (SamDU)
Q. S. YARASHEV	- g.f.d., professor (SamDU)
GUN-SIK PARK	- Seul univeriteti professori, Koreya
D.B.XURSANOV	- g.f.f.d., dotsent (SamDU)
M. S. QUZIYEV	- b.f.f.d., dotsent (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA

Б.Х.Хужаёров, А.И.Усмонов, Ф.Б.Холлиев *Анализ переноса вещества в пористой среде на основе диффузионного уравнения с много-членными дробными производными по времени*.....	2-8
Жуманов И.И., Сафаров Р.А. *Идентификации микрообъектов на основе использования текстурных и геометрических особенностей изображений*.....	9-18
Tashmatova R.V., Ruziyev I.X., Bebitova K.E. *Kimyo darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish haqida mulohazalar*.....	19-23
Жуманов И.И., Холмонов С.М. *Оптимизация прогнозирования нестационарных объектов в условиях большой параметрической неопределенности*	24-33
Safarov T.N. *Uch o'lchovli affin fazosidagi geometriyalar*.....	34-39
Хасанов Т.Г. *Интегрирование нагруженного уравнения кортевега-де фриза с источником в случае движущихся собственных значений в классе быстроубывающих функций*.....	40-50
Nazarov F.M., Eshtemirov B.Sh., Saydullayev Q.Sh. *Microscopic and macroscopic flow models of traffic management*.....	51-58
Tursunov F., Dong Qiu *Zol-gel usulida SiO_2 mikrosferik zarrachalarning sintezi*.....	59-62
Турсунов Ф.Р., Рузикулов Ф.Ф. *Регуляризация задачи коши для линейных эллиптических систем первого порядка с постоянными коэффициентами в ограниченной области*	63-69
Trobov X.T., Atavullayeva Sh.Sh., Karimov X.R., Tursunova G.X., Djurayeva R.A. *Polimer gellarda reagentsiz usulda elektrolitlar aralashmalarini ajratish*.....	70-75
Турдиев Х.Х., Болтаев А.А. *Прямая задача для системы интегро-дифференциальных уравнений в вязкоупругой анизотропной среде*.....	76-84
Begimkulova Sh.A., Mirzayev Sh.E., Hasanov R., Rajabova M., Ivanes A., Nasimov A.M. *Study of adsorption properties OF Mg^{2+} modified Li - Mn spinel*	85-89
Qurbonov Sh.B., Abdiyeva Z.A. *Viloyat ma'muriy markazlarini iqtisodiy geografik o'rganishning ba'zi bir masalalari*.....	90-96
Arziqulov E.U., Urolov Sh.Z., Z. Shaymardanov Sh., Jalolov R.R., Rustamova B.N. *Rux oksidi nanokristallari strukturasi va optik xossalariga yuqori haroratli qizdirishning ta'siri*.....	97-102
Rustamova N., Amriddinova D. *Isolation, identification and optimization of exopolysaccharide-based bioflocculant synthesis by soil bacteria bacillus atrophaeus NR-12*.....	103-109
Ishankulov T., Mannonov M., Mukarramxujayeva N. *Bir jinsli bo'lmagan polianalitik tenglama yechimini birlik doira chegarasining qismidan davom ettirish*.....	110-115
Олимов Х.К., Канокова Ш.З., Шодмонов М.З., Кахорова А.Н. *Анализ распределений поперечных импульсов заряжённых частиц в Pb+Pb Столкновениях при $(s_{nn})^{1/2}$=2.76 ТэВ*.....	116-120
Xudoyberdiyeva I.A. *Navoiy viloyatida chorvachilik tarmoqlarini hududiy tashkil etishning iqtisodiy-geografik jihatlari*	121-125
Qurbonov H., Bozorova O'. *Qayta tiklanish jarayonining kutish joylari soni cheklangan xizmat ko'rsatish sistemalari statsionar navbat uzunliklari taqsimotini o'rganishga tadbiqi*.....	126-131

UDK.911.3:30(575.1) https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v1.1.1904

NAVOIY VILOYATIDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI HUDUDIY TASHKIL ETISHNING IQTISODIY-GEOGRAFIK JIHATLARI

I.A.Xudoyberdiyeva
Navoiy davlat pedagogika instituti
E-mail: irodandpi@gmail.ru

Annotatsiya. Maqolada Navoiy viloyatidagi chorvachilik tarmoqni hududiy tashkil etishning iqtisodiy-geografik jihatidan tahlil qilingan. Shuningdek barcha turdagi chorva sonini statistik ma'lumotlar asosida 2000-2022 yillar oralig'ida o'sishi va ularning mahsuldorligi hududlar kesimida tahlili keltirilgan. Ushbu tarmoqni viloyatda rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zi: Qishloq xo'jaligi, chorvachilik, qo'y-echkichilik, qorako'lchilik, yilqichilik, tuyachilik, yaylov.

Экономические и географические аспекты территориальной организации животноводческих сетей Навоийской области

Аннотация. В статье анализируются экономико-географические аспекты территориальной организации отрасли животноводства Навоийской области. Также на основе статистических данных проанализирован рост поголовья всех видов скота в период с 2000 по 2022 годы и их продуктивность в регионе. Даны предложения и рекомендации по развитию данной отрасли в регионе.

Ключевые слова: Земледелие, скотоводство, овцеводство, каракулеводство, коневодство, верблюдоводство, пастбище.

Economic and geographical aspects of territorial organization of livestock networks in Navoyi region

Abstract. The article analyzes the economic-geographical aspects of the territorial organization of the livestock industry in Navoi region. Also, based on statistical data, the growth of all types of livestock between 2000 and 2022 and their productivity in the region is analyzed. Proposals and recommendations for the development of this industry in the region are given.

Key words. Agriculture, cattle breeding, sheep breeding, horse breeding, camel breeding, pasture.

Kirish. Navoiy viloyatida chorvachilikni rivojlantirish va hududni iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan takomillashtirish respublika siyosatining muhim vazifalaridan biri sanaladi. Chorvachilik tarmog'i viloyat qishloq xo'jaligida o'ziga xos mavqeiga ega va ayni vaqtda shakllanayotgan tarmoqlar sirasiga kiradi. Bu borada keyingi vaqtlarda hukumat tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, dasturlar hamda tashabbuslar fikrimiz dalilidir. Jumaladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022 yil 25 noyabr kuni Navoiy viloyatiga tashrifi chog'ida «Navoiy viloyatini respublikaning na'munaviy hududga aylantirish» bo'yicha yangi tashabbusini ilgari surdi. Unda «yaylovlarni ishga solish orqali echkichilik va qo'ychilikni keskin rivojlantirish, shuningdek viloyatga chorvachilik rivojlangan davlatlardan 200-300 ming bosh zotdor echki va qo'ylarni keltirish xususidagi alohida dasturi ishlab chiqilishi hamda tarmoqni rivojlantirish orqali hududlardagi ishsiz aholini ish bilan ta'minlash» borasida topshiriqlar berildi[1]. Navoiy viloyatiga bunday e'tibor berilishi bejizga emas, chunki ushbu tarmoqni viloyatda rivojlantirishda foydalanilmayotgan imkoniyatlar juda ko'p. Ayniqsa, yaylovlardan unumli foydalanish keng yo'lga qo'yilmagan. Shu sababli qishloq xo'jaligi geografiyasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning chorvachilik xo'jaliklari ehtiyojiga hamohangligini ta'minlash muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Britaniyalik olimlar R.Yarwood va N. Evanslarning fikricha har bir hudud tabiiy xilma xilliklarga bo'lib, o'ziga xos tabiiy sharoitdan tarkib topgan. Shu sababdan ham har bir chorvachilik sohasini rivojlantirish jarayonida hududni geografik jihatdan tahlil qilish va shu hududda joylashgan chorvachilik hayvonlarining mahsuldorligini o'rganish muhim deb o'z ilmiy ishlarida keltirib o'tgan[2]. Shuni ta'kidlash joizki bir hududda yaxshi rivojlanib

mahsuldorligi yuqori chorva turi boshqa bir hududda mazkur natijani bermaydi aksincha zarar bilan yakunlanishi mumkin.

R.Small esa o‘zining chorvachilik turlari va ular ko‘paytirishda geografik joylashuvning o‘rni mavzusidagi doktorlik ishida, chorva mollarini ko‘paytirish geografik joylashuvning bog‘liqligini ochib bergan. Uning ta’kidlashiga ko‘ra bir hududda tug‘ilib ko‘paygan yuqori mahsuldorlik bilan foyda keltiradigan chorva turi boshqa bir hududga ko‘chirilgan vaqtda kutilgan natijani bermaydi[3].

“Navoiy viloyat qishloq xo‘jaligi go‘sht-jun chorvachiligiga ixtisoslashgan bo‘lib, chekka janubda, katta markaziy va shimoliy hududlari esa ekstensiv, haqiqiy cho‘l hududlariga xos yaylov chorvachilgiga ega” [4] kabi muhim fikrlarni aytib o‘tgan.

Soliev. A.S., Komilova. N.Q va boshqalar “Chorvachilikning sutchilik odatda, uncha issiq bo‘lmagan va yog‘in-sochin etarli rayonlarda, daryo qayirlari va dalalar yam-yashil o‘tloqzorlar bilan qoplangan joylarda juda yaxshi rivojlanadi” [5] deya ta’kidlashgan. Bunday tabiiy sharoitga ega ya’ni intensiv qishloq xo‘jaligi rivojlangan janubiy rayonlar Xatirchi, Nurota, Navbahor, Karmana, Qiziltepa tumanlarini aytishimiz mumkin.

Xalmirzayev.A.A.ning tadqiqiot ishlarida “Qo‘ychilik va echkichilikning rivojlanishi tabiiy yaylovlardan foydalanish bilan sug‘oriladigan erlarda ozuqa ekinlari etishtirishga uzviy bog‘liq”[6]ligi hususida to’xtalib o’tganlar.

J.Ya.Nurillaev “qishloq xo‘jalik taroqlarini joylashtirishni turli xildagi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini etishtirishning geografik tushunchasidir” deb ta’kidlaydi. Chorvachilik tarmoqlarini va tarmoqning serdaromad turi hisoblanadigan qorako‘lchilik xo‘jaliklarini to‘g‘ri joylashtirish, ixtisoslashtirish faqatgina oziq-ovqat mahsulotlarini etishtirish hajmini oshiribgina qolmay, shu bilan birgalikda kamroq xarajat qilinib ko‘proq chorva mahsulotlarini etishtirishga imkoniyatlar yaratib beradi[7].

Tadqiqot metodologiyasi. Navoiy viloyatida chorvachilik tarmoqlarini hududiy tashkil etishning iqtisodiy-geografik jihatlarini tahlil qilishda taqqoslash, matematik statistik usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Viloyat go‘sht etishtirish 2020 yilda 164,2 ming tonnani tashkil qilib, respublikada ishlab chiqariladigan umimiy go‘sht hajmining 6,5% ni tashkil etgan. Sut etishtirish bo‘yicha esa 481,6 ming tonnani tashkil etib respublikada umumiy hududlar bo‘yicha sut etishtirishning 4,4% ni tashkil etgan.

Navoiy viloyatida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini etishtirish va aholi etkazishda barcha toifadagi xo‘jaliklar (fermer xo’jaliklar, dehqon(shaxsiy yordamchi, qishloq xo’jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar)) ishtirok etishadi. Ayni vaqtda ularning soni 2210 tani tashkil qiladi (1-rasm).



1-rasm. Navoiy viloyatidagi chorvachilikka ixtisoslashgan xo’jaliklar soni

1-Rasmda ta’svirlanganidek chorvachilikka ixtisoslashgan xo’jaliklarini hududlar kesimida tahlil qiladigan bo’lsak Tomdi, Nurota, Konimex tumanlari xo‘jaliklar soni bo‘yicha etakchi tumanlar hisoblanadi. Shundan 652 tasi esa qorako‘lchilikka ixtisoslashgan bo’lib, xo‘jaliklarning asosiy faoliyati qorako‘l qo‘ylaridan nasl olish, go‘sht va teri olishda alohida ixtisoslashgan xo‘jaliklarda amalga oshiriladi.

Navoiy viloyatda asosan qo‘y-echkichkichilik, qoramolchilik, tuya va yilqichilik tarmoqlarini shakllantirishga tabiiy geografik jihatidan imkoniyatlar ko‘proq bo’lib, keyingi yillarda ularning soni keskin oshgan. Viloyatdagi chorva mollari, parandalar, asalari oilalarining sonini 1-jadvalda 2000-2022 yillar oralig’ida tahlilini keltirganmiz.

1 -jadval

Navoiy viloyatida 2000- 2022 yillar oralig‘ida chorva turlarining umumiy bosh soni(bosh)

Chorva turlari	Yillar					
	2000	2005	2010	2015	2020	2022
Yirik shohli qoramollar	174387	218329	312036	384049	501650	538 116
Qo‘ylar va echkilar	1056483	1325938	1710920	1782571	2264200	2376477
Shundan qorako‘l qo‘ylar	969 916	1202 021	1458 001	1 495 967	1298848	1480374
Otlar	11100	12800	14500	15390	18778	20613
Tuyalar	6700	7400	8400	8662	8251	10121
Asalari oilalari(dona)	2800	4780	14281	29581	49974	58064
Parrandalar	611877	786866	1174091	1858121	3031767	3306923

Jadval Navoiy viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Navoiy viloyat hududining juda katta qismi cho‘llardan iborat bo‘lib, umumiy qishloq xo‘jaligi erlarining 98,5% yaylov va pichanzorlarga to‘g‘ri keladi. Konimex, Tomdi, Uchquduq tumanlarida bu ko‘rsatkich deyarli 100 foizni tashkil etadi[4]. Bu hududlarda asosan chorvachilikning qo‘y-echkichilik tarmog’i yaxshi shakllangan. Darhaqiqat, viloyatda katta yaylov resurslariga ega ekanligi qorako‘lchilikni ko‘paytirishda va sohani rivojlantirishda boshqa hududlarga nisbatan imkoniyatlari kengroq.

Qorako‘lchilikni rivojlantirish maqsadida hukumatimiz tamonidan qabul qilingan qarorlarni ijrosini ta’minlash maqsadida viloyatda 13 ta qorako‘lchilikka ixtisoslashgan klasterlar tashkillashtirilgan. Viloyatdagi jami yaylovlarning 3 million 131 ming gektari ushbu klasterlar uchun ajratilgan. Qorako‘lchilikka ixtisoslashgan klasterlar Konimex tumanda 3 ta, Tomdi va Nurota tumanlarida 2 ta qolgan tumanlarda bittadan tashkil etilgan.

Tomdi, Konimex, Uchquduq va Nurota tumalarida yaylov chorvachiligining qorako‘lchilik tarmog‘iga ixtisoslashgan. Bu tumanlarda qorako‘lchilikni ko‘paytirish, rivojlantirish ancha qulay sababi bu cho‘l tumanlarda havo harorati yozi issiq, qish fasli esa keskin sovib ketadi, qorako‘l zotli qo‘y turi sovuq va issiq havoga chidamli aynan cho‘l uchun sinalgan zot hisoblanadi. Bundan tashqari tog‘ va tog‘oldi hududlarda ya’ni tog‘-yaylov zonasidagi Xatirchi, Nurota, Qiziltepa, Navbahor, Karmana tumanlarda asosan intensiv shaklda qorako‘lchilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklar faoliyat yuritishadi.

Qorako‘lchilik sanoati jun, mo‘yna, go‘sht, sut, teri va kigiz kabi mahsulotlarning manbalari hisoblansada lekin qorako‘l terisi qorako‘lchilikning asosiy mahsuloti hisoblanadi. Qorako‘l terisiga tashqi va ichki bozorida talab kuchli bo‘lib, yuqori narxda baholanadi[8].

Viloyatda qo‘y va echkilarning umumiy soni 2 376 477 ta bosh bo’lib, shundan 371175 boshini echkilar hamda 1 480 374 tasini qorako‘l qo’ylari tashkil qiladi. Konimex tumanida qorako‘lchilikka ixtisoslashgan 187 ta xo‘jalik mavjud bo‘lib, qo‘ylarining soni 347486 boshni tashkil qiladi. Ushbu tumanda bir yilda o’rtacha 89,4 ming dona qorako‘l teri ishlab chiqaradi. Viloyatda ishlab chiqariladigan jami qorako‘l terining 31.5 foizini tashkil qiladi. Tomdi tumani umiy er maydoni

42,49 ming. kv. kmni va Uchquduq tumani 46,63 ming. kv. kmni tashkil qiladi ya'ni Navoiy viloyatining umimiy er maydonini 80,3 %ni tashkil qiladi[9]. Bu tumanlarni er maydonini asosiy qismni yaylov va pichanzorlar tashkil qilsada lekin suv va quduqlar tanqisligi, qishki ozuqa uchun em-hashak muommosi tufayli bu hududlarda etarli darajada qorako'l qo'ylari uchun sharoitlari etarli emas.

Echkichilik ham chorvachilikning serdaromad turi hisoblanadi va boshqa chorva turlariga nisbatan tez ko'payish xususiyatiga ega. Yilliga har 100 bosh urg'ochi echkidan 150 tagacha o'loq olish mumkin. echkilardan go'sht, jun, tivit mahsuloti olinadi. 2021 yil yanvar xolatiga ko'ra echkilar soni 371175 boshni tashkil qiladi. Echkilar bosh soni bo'yicha Xatirchi tumani etakchilik qiladi, shuningdek, Konimex, Nurota, Navbahor va Tomdi tumanlarida o'rtacha 4 5000 boshni tashkil qiladi. Echkichilikni viloyatning barcha tumanlarida ko'paytirish mumkin. Ammo ularning soniga va mahsuldorligiga hududning tabiiy omillari o'z ta'sirini ko'rsatadi. Qo'y va echkilarning mahsuldorligiga yaylovlarning unumdorliga alohida ahamiyat kasb etadi.

Qoramolchilik- bizga ma'lumki, chorvachilikning etakchi turi hisoblanib, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga ya'ni sut,-go'sht mahsulotlari bilan ta'minlashda asosiy o'rin egallaydi. Qoramolchilikni takomillashtirishda ularning mahsuldorligi va miqdori inobatga olingan holda amalga oshiriladi. Mahsuldorlik bu mollarning go'shtdorligi, sutning sifat ko'rsatkichi ya'ni yog'liligi, oqsilga boyligi bilan aniqlanadi. Chorvachilik mahsulotlarini sifati samaradorlikni oshirish xizmat qiladi.

Viloyatning asosan markaziy va janubiy tumanlarida chorvachilikninig qoramolchilik sohasi yaxshi shakllangan. Chunki qoramolchilikni shakllantirish uchun tabiiy jihatdan imkoniyatlari keng hududlar sanaladi.Bizga ma'lumki, qoramollarni yaylovlarda poda qilib boqish, iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, uning afzalligi mollar oyoq ostidagi o't-o'lanlar bilan oziqlanadi va mahsuldorligi oshadi. Bunda inson mehnati juda kam talab etiladi. Podalarni o'tlatishda faqat cho'ponlar mehnat qilishadi. Yil mobaynida mollar 5-6 oy boqilib, uning mahsuldorligini oshirishda yaylovlarning hosildorligi, o't-o'lanlarning xilma-xilligiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari mollarni qo'lda boqishga nisbatan yaylovda boqish 7-8 barobarga kam mablag' va kam kuch sarflanadi. Ammo yaylovlardan ko'p foydalanish natijasida ularning unumorligi pasayishi va degradatsiyaga uchrashi mumkin.

Navoiy viloyatida mazkur tarmoq 2000-2022 yillar oralig'ida Xatirchi, Qiziltepa, Navbahor, Karmana, Tomdi, Uchquduq tumalarida tez suratlarda o'sib borgan. Hozirgi kunda ularning soni 538 116 boshni tashkil qiladi. Soni jihatdan eng yuqori kursatkichlar, Qiziltepa va Xatirchi tumanlariga to'g'ri keladi va bu tumanlarda g'osht-sut etishtirishda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Tuyachilik- Chorvachilikning bu tarmog'i biologik xususiyatiga ko'ra boshqa chorva turlariga nisbatan farq qiladi. Ular ikki turga bo'linishadi bir o'rkachli- dromedar va ikki o'rkachli- baktrian turlarga bo'linadi. Tuyalar asosan suvsiz dashtlarda va cho'l zonasida tarqalgan chorva turi hisoblanadi. Tuylarning asosiy vazifasi aholi undan transport vositasi sifatida foydalanadi yana bir muhum jihati ma'lum miqdorda go'sht, jun, sut etishtirib beradi. Tuyalar tog'li va iqlimi nam hududlarda yashashga moslashmagan. Tadqiqot olib boriyotgan hududimizning asosiy qismida ushbu sohani shakllantirish va rivojlantirish uchun tabiiy omillar etarli darajada.

Bizga ma'lumki, tuyalarning oziqlanishi cho'l, dasht, sahrolarda tikanli, siyrak, sho'r o'simliklarni iste'mol qilaoladi, bundan tashqari tuyalar uzoq vaqt suvsizlikka bardosh beraoladi, cho'l va sahrolardagi sho'r-taxir suvlardan chanqog'ini qondira olish xususiyatiga ega. Bunday xususiyat boshqa chorva turlarida kuzatilmaydi. Tuyalar cho'lning issiq jaziramasida ya'ni yozi o'rtacha 50^0 c issiq haroartga va qish o'rtacha -27^0 s sovuq bo'lgan haroratga yaxshi moslasha olish xususiyatiga ega. Ular qum barxanlarda 240- 320 kg yukni kutarib, 170-180 km masofani bosa olishi mumkin.

Ya'na muhim jihatlaridan tuya doimiy yil mobaynida sut beruvchi va bir yilda bir marotaba juni olinadi. Tuyachilik bilan shug'illanadigan aholi tuyaning sutidan shuvot, go'shtidan qazi, junidan chekmon, terisidan esa turli xil xo'jalik anjomlari tayyorlaydi[10].

Tuyalar resbuplikamizning Navoiy viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasida, hamda Buxoro, Qashqadaryo viloyatlarida ko'proq uchraydi. Ayni vaqtda ularning umumiy bosh soni 20,1 ming boshni tashkil qiladi. 2022 yil yanvar holatiga ko'ra Navoiy viloyati tuyalar bosh soni bo'yicha etakchi hudud bo'lib, viloyat ulushi 44,3 foizni tashkil qilib, ularning soni 8251 boshni tashkil qiladi. Cho'ldan tumanlarda- Konimex tumanida 3152 ta, Tomdi tumanida 2364 ta, Uchquduq tunmanida

2087 tani tashkil qiladi. Undan tashqari Qiziltepada 230 ta, navbahorda 68 ta, Nurotada 47 ta va Karmana tumanida 3 tani tashkil qiladi.

Yilqichilik- hudud yilqichiligi qishloq xo‘jaligida o‘rni be’qiyos sababi yer maydoni cho‘l zonaga kirishi va mexanizatsiyalashgan transportdan yaxshi foydalana olmaslik asosan yaylovda otlardan foydalanishni talab etadi. Navoiy viloyatida sohani rivojlantirish uchun tabiiy jihatdan qulay hudud hisoblanadi.

Respublikada jami yilqilarning 10,7 foizi Navoiy viloyatiga to‘g‘ri keladi. Ayni vaqtda hududda yolqilarning umumiy soni 20613 boshni tashkil qiladi. Shundan soni bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar Tomdi, Konimex, Uchquduq, Xatirchi tumanlari etakchilik qiladi. Tomdi 2000-2020 yillar oralig‘ida 1,7 barobarga oshgan. Bu ko‘rsatkich ijobiy tavsifga ega chunki, yilqilar aholi salomatligi uchun foydali bo’lgan qimiz, ot go‘shti kabi mahsulotlari bilan ta’minlaydi. Shu bilan birgalikda cho’l, yaylovlar, tog’li hududlarda ya’ni mehanizatsiya vositalaridan foydalanishga imkoniyati yo’q hududlarda ichchi hayvon va transport vositasi sifatida foydalaniladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda respublikamiz qishloq xo‘jaligida Navoiy viloyatida chorvachilik tarmog‘i hamda qorako‘l terisi, go‘sht-sut mahsulotlarini yetkizib berishida alohida o‘ringa ega hududdir. Viloyatda qo‘y-echkichilik, qoramolchilik, yilqichilik, tuyachilikni hamda eng serdaromad turlardan biri bo‘lgan qorako‘lchilikni hududiy tashkil etishning iqtisodiy geografik jihatlarini o‘ranish hamda sohani rivojlantirishda qo‘yidagilarni inobatga olish zarur deb o‘ylaymiz:

Viloyatda qoramolchilik, qo‘y-echkichilikni hamda qorako‘lchilikni rivojlantirish va ulardan nasl olish, go‘sht- sut, teri mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarni tashkil etish, yangi ish o‘rinlar yaratish lozim.

Tuyachilik va yilqichilikni ko‘paytirish uchun ham tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy geografik omillar mavjudligini hisobga olgan xolda bu sohani rivojlantirishda qo‘yidagi jihatlarni amalga oshirish zarur. Viloyatda chorvachilikka ixtisoslashgan tumanlarda qorabair zotidan foydalanib, yilqilar naslini ko‘paytirish. Go‘sht-sut yo‘nalishidagi tuyachilik va yilqichilikni kengaytirish, va uni dam olish va sog‘lomlashtirish maskanlari atrofida joylashtirish, viloyatda ot sportini tashkil etish va yoshlarni shu sport turiga jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Xalq so’zi gazetasi. 2022-yil 29-noyabr, № 256 (8318).
2. Dooho Park, Andrew Seidl, and Stephen Davies. Environmental Policy and Industry Location: The Case of the U.S. Livestock Industry. The Review of Regional Studies 2002, 32(2), 293-307.
3. Small R. “Rare breeds in habitat conservation” The Ark, 22 (1995), pp. 246-250.
4. Soliev A.S. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Toshkent-2014, 232-bet.
5. Soliev A.S., Komilova N.K., Yanchuk S.L., Jumaxonov Sh.Z., Rajabov F.T. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Darslik, “Noshir”, T.2019. 138 b.
6. Xalmirzaev A.A. O‘zbekistonning obikor mintaqalarida chorvachilikni hududiy tashkil etish va rivojlantirish xususiyatlari (Farg‘ona iqtisodiy rayoni misolida) Geogr. fan. b-cha fal. dok. dis. –T, 1994. -67 b.
7. Nurillaev J.Y. “Qorako‘lchilik qo‘yi majuini isloh qilish va uning samaradorligini oshirish(O‘zbekiston Respublikasi misolida)” Iqtisod. fan. nom. Dis . – Toshkent: 1998. – 20 b.
8. Murtazaev I.B., Komilova N.Q., Khudoyberdieva I.A., Abdieva Z.A. Some prospective directions of effective development of the economy of navoi region // Psychology and education (2021) 58 (1).
9. Komilova N.Q., Xudoyberdiyeva I.A. Navoiy viloyati chorvachiligining ayrim iqtisodiy geografik jihatlari // O’zMU xabarlari. 2021[3/2]. ISSN 2181-74. 175-179 b.
10. Oblaqulov H.A. Navoiy viloyati aholisi turmush tarzi va uning ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari. Geogr. fan. b-cha fal. dok. (PhD) . dis. – T., 2021. –50 b.
11. Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari. 2022-yil.